Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinova	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукахоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1238
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.....	1242
Xalikov Baxrom Shomurovich	



PUL MABLAG'LARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Xalikov Baxrom Shomurovich

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Iqtisodiyot kafedrası v.b.dotsenti

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

ORCID kodi: 0009-0003-4954-3890

E-mail: bahromxalikov@mail.ru

Annotatsiya. Pul mablag'lari yuqori likvidli aktiv sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Pul mablag'larining yetarli darajada bo'lmashligi korxonalar tomonidan xom ashyo va materiallarni o'z vaqtida sotib olish imkoniyatini cheklaydi hamda iqtisodiyotda to'lovsizlik muammosining yuzaga kelishiga olib keladi. Mazkur maqolada respublikamiz korxonalarida pul mablag'larining buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari o'rganilib, ularni yanada samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: korxona, pul mablag'lari, naqd pullar, pul oqimi, buxgalteriya hisobi, kassa intizomi, hisob-kitoblar, pullik majburiyatlar.

Abstract. Cash funds, as highly liquid assets, play a crucial role in ensuring the continuity of production activities of business entities. Insufficient cash resources limit enterprises' ability to purchase raw materials and supplies in a timely manner, leading to payment arrears and financial instability in the economy. This article examines the issues of improving the accounting of cash funds in domestic enterprises and develops scientifically grounded proposals and recommendations aimed at enhancing the efficiency of cash accounting practices.

Key words: enterprise, cash funds, cash, cash flow, accounting, cash discipline, settlements, monetary obligations.

Аннотация. Денежные средства, являясь высоколиквидными активами, играют важную роль в обеспечении непрерывности производственной деятельности хозяйствующих субъектов. Недостаточность денежных средств ограничивает возможности предприятий по своевременному приобретению сырья и материалов, что приводит к возникновению проблемы неплатежей в экономике. В статье исследованы вопросы совершенствования бухгалтерского учета денежных средств на предприятиях республики, а также разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по его улучшению.

Ключевые слова: предприятие, денежные средства, наличные деньги, денежные потоки, бухгалтерский учет, кассовая дисциплина, расчеты, денежные обязательства.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi debitor va kreditor qarzdorlik masalasi iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jami 18 trillion so'mlik debitor qarzdorlikning 14 trillion so'mi, ya'ni qariyb 60 foizi, so'nggi uch yil davomida saqlanib kelmoqda [1]. Mazkur holat muddati o'tgan qarzdorlikni qisqartirish masalasiga yanada tizimli va samarali yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning xorijiy valyutaga bo'lgan ehtiyojini qondirish ularning faoliyatini texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish jarayonida muhim o'rin tutadi.

O'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish hamda valyuta operatsiyalarini rivojlantirish pul mablag'lari va valyuta operatsiyalarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa pul mablag'lari hisobini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish va uni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

S. Van Xorn va M. Vaxovichlarning fikriga ko'ra, kompaniyalarda pul oqimlari barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor operatsion pul oqimining barqarorligiga qaratilishi lozim. Bunda operatsion pul oqimi investitsion xarajatlarni moliyalashtirish, qarz majburiyatlari va dividendlarni to'lash uchun yetarli bo'lishi zarur [2].

Mualliflar alohida ta'kidlashlaricha, operatsion pul oqimining zaiflashuvi debitor qarzdorlik hamda tovar-moddiy zaxiralar qoldig'ining ortishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ushbu xulosa O'zbekiston amaliyoti uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki respublikamizdagi qator korxonalarda debitor qarzdorlikning o'sishi hisobiga joriy aktivlar hajmi ortib, operatsion pul oqimining zaiflashuvi kuzatilmoqda.

Rossiyalik iqtisodchi olim V. Savchuk korxonalarda pul oqimlari barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tiborni CVP-tahlilga (Cost–Volume–Profit, ya'ni korxonaning zararsizlik nuqtasi) qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi [3].

N. Prodanovanning fikriga ko'ra, pul mablag'larining hisobi, nazorati va tahlili uslubiyotlarini takomillashtirish, beqarorlik va risk sharoitida qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarning ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish, shuningdek, pul mablag'larini boshqarishning analitik va modelli usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud. Korxonalarda pul mablag'larining hisobi, nazorati va tahlilini tashkil etish zarurati moliyaviy oqimlar barqarorligini ta'minlashga bo'lgan amaliy ehtiyoj bilan izohlanadi [4].

N. Gurjiyning fikriga ko'ra, pul mablag'larining hisobi buxgalteriya hisobining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, chunki pul mablag'lari har bir korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishning zaruriy sharti sanaladi. Hozirgi sharoitda pul mablag'larini buxgalteriya hisobining ishonchli ma'lumotlari asosida boshqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda [5].

O. Shuktuyeva ta'kidlashicha, pul mablag'lari deganda nafaqat naqd pul, balki qimmatli qog'ozlar, moliyaviy aktivlar va pullik majburiyatlar ham tushuniladi hamda ular kapital sifatida talqin qilinadi. Pul mablag'lari korxona balansida aylanma aktivlar tarkibida "Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari" moddasida aks ettiriladi [6].

Ye. Yefremovning fikriga ko'ra, pul mablag'lari likvidlilik darajasi eng yuqori bo'lgan aktivlar hisoblanadi. Ular xo'jalik faoliyatining hisob siklining ham boshlang'ich, ham yakuniy bosqichlarida ishtirok etib, tovarlarni sotib olish, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, ularni realizatsiya qilish va tushumni olish jarayonlarini qamrab oladi [7].

N. Kazakova va T. Kriveskayaning xulosasiga ko'ra, korxona uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari miqdorini aniqlash hamda ularni aktivlar bo'yicha optimal taqsimlash xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatidagi muhim elementlardan biridir. Bu, asosan, pul mablag'larining yetishmasligi natijasida ishlab chiqarish va tovar aylanmasi jarayonlarining sekinlashishi bilan izohlanadi [8].

D. Bugayev va A. Ryabchenkoning fikriga ko'ra, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari buxgalteriya hisobini yuritishning aniq qoidalarini belgilamaydi, balki moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarni baholash va taqdim etish bo'yicha umumiy tamoyillarni bayon etadi. Shunga muvofiq, axborotlarni oshkor etish moliyaviy hisobotlarning standart shakllari orqali amalga oshiriladi va bu har doim ham foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi mumkin. Shu sababli, ko'plab mamlakatlarda xalqaro standartlar buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha milliy talablarni shakllantirishda asos sifatida qo'llaniladi [9].

U. Omelchenko va N. Borisovalarning fikriga ko'ra, pul mablag'lari hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha pul mablag'lari bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish;
- kassa va hisob-kitob intizomiga rioya etilishini ta'minlash;
- pul mablag'lari harakati bo'yicha operatsiyalarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish, korxona kassasidagi naqd pullar hamda qimmatli qog'ozlar saqlanishi ustidan kundalik nazoratni amalga oshirish;
- buxgalteriya standartlariga rioya qilish va moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini korxona pul mablag'laridagi o'zgarishlar to'g'risida to'g'ri hamda ishonchli axborot bilan ta'minlash [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Xususan, pul mablag'larining buxgalteriya hisobini o'rganishda tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, mantiqiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini respublikamiz korxonalarida pul mablag'larining harakati bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, moliyaviy hisobotlar, kassa va bank hujjatlari tashkil etdi. Pul mablag'larining holati va harakatini baholashda iqtisodiy tahlil, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili, shuningdek, pul oqimlarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.



Pul mablag'larining hisobini tashkil etish amaliyotini baholash jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, amaldagi buxgalteriya hisobvaraqlari tizimini o'rganish hamda ularni xalqaro tajriba bilan taqqoslash usullari qo'llanildi. Shuningdek, tadqiqot davomida hisob ma'lumotlarini umumlashtirish, xulosalash va ilmiy takliflar ishlab chiqish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pul mablag'lari hisobining to'g'ri tashkil etilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, pul mablag'larining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlari ularning maqsadli va samarali foydalanilishini baholash hamda nazorat qilish imkonini beradi; ikkinchidan, korxona faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan likvidlik muammolarining kelib chiqish sabablarini aniqlash imkonini yaratadi; uchinchi esa, korxona pul oqimining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Korxonada faqat bitta kassa daftari yuritiladi. U belgilangan tartibda raqamlangan, shnurlangan va muhrlangan bo'lishi lozim. Kassa daftari raqamlangan betlar soni ko'rsatiladi hamda korxona rahbari va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlanadi. Kassa daftari qaydlar nusxa ko'chirish qog'ozi orqali ikki nusxada amalga oshiriladi.

Har ish kuni yakunida kassir bir kunda amalga oshirilgan kassa operatsiyalari bo'yicha jami tushum va chiqimlarni hisoblab chiqaradi, keyingi kunga kassada qolgan pul mablag'lari qoldig'ini hamda to'lov qaydnomalari bo'yicha hali chiqimga hisobdan chiqarilmagan summalarni aniqlaydi. Kassa daftari ikkinchi qirqa varag'i (kassir hisobotining nusxasi) kirim va chiqim hujjatlari bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi va bu holat kassa daftari qayd etiladi.

Kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobida quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

- 5010 — "Milliy valyutadagi pul mablag'lari";
- 5020 — "Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari".

1-jadval. "GISHT - SIFAT" xususiy korxonasi pul mablag'larining tarkibi¹, foizda

Pul mablag'lari	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Kassadagi naqd pullar	0,3	0,1	0,1
Joriy hisobraqamdagi pullar	76,6	67,2	70,3
Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari	20,7	28,4	25,7
Boshqa pul mablag'lari	2,4	4,3	3,9

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kassadagi naqd pullar "GISHT-SIFAT" xususiy korxonasi pul mablag'lari umumiy hajmida juda kichik salmoqni egallaydi. Korxonaning milliy va xorijiy valyutadagi joriy hisobraqamlaridagi pul mablag'lari esa pul mablag'larining umumiy hajmida yuqori ulushga ega. Bu holat korxonada hisob-kitoblarning asosan naqd pulsiz shaklda amalga oshirilayotgani bilan izohlanadi.

2024-yil fevral oyida "GISHT-SIFAT" xususiy korxonasi tijorat bankidan ish haqi to'lash uchun 34 mln 780 ming so'm miqdorida naqd pul oldi. Ushbu operatsiya korxonaning Bosh kitobida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtirildi:

Debet: 5010 — 34 780 000 so'm

Kredit: 5110 — 34 780 000 so'm

Mablag' to'lovchi va oluvchiga bitta bank muassasasi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hisob-kitoblar to'lov topshiriqnomasi asosida uch nusxada taqdim etiladi. Birinchi nusxa to'lovchi bankida memorial order sifatida xizmat qiladi, ikkinchi nusxa bir shahardagi o'tkazmalar chog'ida oluvchiga yuboriladi, uchinchi nusxa esa to'lovchiga topshiriqnoma qabul qilinganligini tasdiqlovchi tilxat va bank muassasasi shtampi bilan beriladi.

Agar mablag' to'lovchi va oluvchiga bir shaharda joylashgan turli bank muassasalari xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, topshiriqnoma to'rt nusxada taqdim etiladi. Ularning birinchisi memorial order sifatida foydalaniladi, ikkinchi va uchinchi nusxalari to'lov amalga oshirilgandan so'ng mablag' oluvchining bankiga yuboriladi. Bunda ikkinchi nusxa order sifatida bankda qoladi, uchinchi nusxa esa oluvchi hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi. To'rtinchi nusxa to'lovchiga tilxat va bank shtampi bilan birga qaytariladi.

Ijro uchun qabul qilingan topshiriqnoma summolari topshiriqnomalarda ko'rsatilgan to'lovchilar hisobvaraqlaridan o'chiriladi. Akseptlangan topshiriqnoma to'lovga faqat to'liq summa miqdorida qabul qilinadi. Akseptlangan topshiriqnomalarni qabul qilish jarayonida bank topshiriqnomaning orqa tomonida ularni to'lash uchun qabul qilgan korxonaning qabul qilish sanasi ko'rsatilgan shtamp mavjudligini nazorat qiladi.

¹ "GISHT - SIFAT" xususiy korxonasi Buxgalteriya balans (1-shakl) ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan hisoblandi.



Hisob-kitobni bank tomonidan akseptlangan topshiriqnoma asosida amalga oshirmoqchi bo'lgan to'lovchi unga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga aksept uchun topshiriqnomani (0401002-shakl) uch nusxada taqdim etadi. Dastlabki ikki nusxaga imzo qo'yilishi va muhr izi tushirilishi shart.

Topshiriqnomaning to'g'ri rasmiylashtirilgani hamda uni bajarish imkoniyati tekshirilgandan so'ng, uning summasi bank muassasasi tomonidan topshiriqnoma taqdim etgan to'lovchining hisobvarag'idan o'chiriladi va "Akseptlangan to'lov topshiriqnomalari va banklarning hisob-kitob cheklari" hisobvarag'ida deponentlanadi. Topshiriqnomaning birinchi nusxasi bank muassasasi muhri bilan tasdiqlanib, to'lovchining ishonchli vakiliga beriladi. Ushbu vakilning imzo namunasi topshiriqnomaning ikkinchi nusxasida keltiriladi. Zarurat tug'ilganda bank ishonchli vakildan shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni so'rashi mumkin.

O'tkazma yuboruvchidan qabul qilingan akseptlangan topshiriqnomalar aloqa korxonalari va transport tashkilotlari orqali ularga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalariga to'lov topshiriqnomalarining blanklar bo'yicha tuzilgan reyestri (0401007-shakl) asosida topshiriladi.

2-jadval. 5000-“Kassadagi pul mablag'lari”ni hisobga oluvchi hisobvaraqlar korrespondensiyasi²

№	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Hisob varaqlar korrespondensiyasi		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		Debet	Kredit	
1	Bankdagi tegishli hisobvaraqlardan pul mablag'larining kassaga kelib tushishi (ish haqi, nafaqa, mukofotlar)	5010	5110, 5210	Pul cheki pattasi va ko'chirmasi, kassaning kirim orderi kassa kitobi
2	Yo'ldagi pul mablag'larining kelib tushishi	5010	5620	Kirim to'g'risidagi tasdiqnoma
3	Mahsulot ish va xizmatlarning naqd pulga sotilishi	5010	9010-9030	Sotish vedomosti va kassaning kirim orderi
4	Hisobdor shaxslar tomonidan olingan va ishlatilmagan ortiqcha summalarning qaytarilishi	5010	4230	Bo'nak hisoboti va kassaning kirim orderi
5	Pul mablag'larining kassadan hisoblashish hisobvarag'iga qaytarilishi	5110	5010	Topshirish e'loni va bankning ko'chirmasi
6	Kassadan ish haqi va boshqa to'lovlarning (yordam pullari, mukofotlar, ishtirok etishdan daromadlar)ning berilishi	6710	5010	To'lov vedomosti va kassa chiqim orderi
7	Bir martalik yordam pulining kassadan to'lanishi	9430	5010	Kassa chiqim orderi, rahbarning buyrugi va ariza

Jurnal-order shakli bo'yicha hisobga olishda kassa operatsiyalari 1-jurnal-orderda (5000 — “Kassa” hisobvarag'ining kredit oborotlari) hamda jurnal-orderga ilova qilinadigan 1-qaydnomada (5000 — “Kassa” hisobvarag'ining debet oborotlari) aks ettiriladi. Ushbu hisob registrlariga kiritiladigan yozuvlar kassir tomonidan tuzilgan, tekshirilgan va buxgalteriya tomonidan qayta ishlangan hisobotlar asosida har kuni amalga oshiriladi.

Kassa muomalalarini yuritish tartibida pul mablag'larining mavjudligi va saqlanishini nazorat qilish maqsadida inventarizatsiya o'tkazilishi ham nazarda tutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida pul mablag'larining hisobi bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- pul mablag'larining hisobi, nazorati va tahlili bo'yicha uslubiyotlarni ishlab chiqish, beqarorlik va risk sharoitida qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarning ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish hamda pul mablag'larini boshqarishning analitik va modeli usullarini takomillashtirish korxonalar uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;
- pul mablag'lari likvidlilik darajasi eng yuqori bo'lgan aktivlar hisoblanib, ular hisob siklining ham boshlang'ich, ham yakuniy bosqichlarida ishtirok etadi;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari buxgalteriya hisobini yuritishning aniq qoidalarini belgilamaydi, balki moliyaviy hisobotlarda baholash va axborotni taqdim etish bo'yicha umumiy tamoyillarni bayon etadi;
- pul mablag'lari hisobining to'g'ri tashkil etilishi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat pul mablag'laridan maqsadli foydalanilishini baholash va nazorat qilish,

² Karimov A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi. Darslik. — Toshkent: Sharq, 2004. — B. 310.



likvidlilik muammolarining kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda pul oqimining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni belgilash imkonini berishi bilan izohlanadi;

- respublikamiz korxonalarida kassa operatsiyalari buxgalteriya hisobida quyidagi hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 5010 — “Milliy valyutadagi pul mablag'lari”, 5020 — “Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari”.

Fikrimizcha, respublikamiz korxonalarida pul mablag'larining buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

birinchidan, korxonaning investitsion va moliyaviy faoliyatidan olinadigan pul mablag'lari hisobini alohida-alohida yuritish;

ikkinchidan, spot va forvard operatsiyalari bo'yicha pul mablag'lari hisobini valyutalar turlari kesimida tashkil etish;

uchinchidan, pul mablag'lari harakati bo'yicha analitik balansni to'ldirish algoritmini ishlab chiqish. Mazkur algoritm quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- korxonaning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojdagi o'zgarishlarni aniq hisobga olish;
- ishonchli va aniqlangan axborot manbalariga asoslanish;
- naqd pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor olish imkonini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 30 b.
2. Ван Хорн Дж., Вахович М. Основы финансового менеджмента / пер. с англ. М.: ООО “И.Д. Вильямс”, 2011. С. 322-323.
3. Савчук В.П. Управление финансами предприятия: монография. М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2011. С. 178-179.
4. Проданова Н.А. Мошенничество в профессиональной сфере угроза мирового масштаба // Финансовый менеджмент. 2016. № 1. С. 131-137.
5. Гуржий Н.А. Организация бухгалтерского учета денежных средств, анализ денежных потоков организации // Актуальные вопросы экономических наук. 2015. № 43. С. 117-123.
6. Шуктуева О.И. Актуальные проблемы применения Международных стандартов финансовой отчетности на территории Российской Федерации // Фундаментальные исследования. 2016. № 3-1. С. 216-220.
7. Ефремова Е.И. Анализ отчета о движении денежных средств в лизинговых компаниях // Лизинг. 2016. № 2. С. 42-47.
8. Казакова Н.А., Кривецкая Т.П. Практикум по дисциплине “Экономический анализ”. М.: ФГБОУ ВПО РЭУ им. Г.В. Плеханова, 2013. С. 46-61.
9. Бугаев Д.А., Рябченко А.В. Исторические аспекты МСФО в России // Вестник Адыгейского государственного университета. 2014. № 2 (141). С. 91-98.
10. Омельченко Е.Ю., Борисова Н.А. Современный учет денежных средств и контроль их движения // Журнал экономических исследований. 2017. № 4. С. 94-100.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>